

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
**Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning
samaradorligini oshirish**

Karachayeva Mashxura Valijonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar samaradorligini oshirish masalalari, kredit miqdorini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shu bilan bирgalikda tijorat banklar jami kreditlarning maqsadli ishlatilishi, uning tahlili, tijorat banklar maqsadli kreditlar miqdorini oshirishdagi muammolari, imkoniyatlari hamda tijorat banklar kreditlarini optimallashtirish masalalari yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: bank tizimi, tijorat banklari, kredit, maqsadli kredit, monitoring, foiz stavka, risk.

Abstract: The article discusses the issues of increasing the profitability of loans allocated by commercial banks, highlighting both the theoretical and practical aspects of increasing the loan amount. Alongside this, it sheds light on the purposeful utilization of total loans by commercial banks, their analysis, challenges in increasing the volume of purposeful loans, opportunities, as well as proposals and recommendations regarding optimizing commercial bank loans.

Key words: banking system, commercial banks, credit, targeted credit, monitoring, interest rate, risk.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы повышения эффективности кредитов, предоставляемых коммерческими банками, теоретические и практические аспекты увеличения суммы кредитов. При этом были высказаны предложения и рекомендации по целевому использованию общей суммы кредитов коммерческих банков, ее анализу, проблемам и возможностям коммерческих банков по увеличению объемов целевых кредитов, а также оптимизации кредитов коммерческих банков.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ключевые слова: банковская система, коммерческие банки, кредит, целевой кредит, мониторинг, процентная ставка, риск.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar muhim ro‘l o‘ynaydi. Bu borada banklarimiz tomonidan ajratilayotgan kreditlarning tarmoqlar bo‘yicha maqsadli ishlatilayotgani dolzarb masalardandir. Ayniqsa yurtimizda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida ajratilayotgan kreditlar maqsadli ishlatilishi eng asosiy masalalardandir. Bu borada yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, ishlab chiqilayotgan qonun, qaror va farmonlar orqali kreditlar ajratilishini ta’minlash ishlari olib borilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prizdentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmonida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirishda bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish ko‘zda tutilgan¹.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Kreditning mohiyatiga qator iqtisodchi olimlar tegishli ta‘riflarni shakllantirgan. Xususan, Shegorsov V.A. tahriri ostida tayyorlangan darslikda, “Kredit – qaytarish va to‘lov sharti bilan qarzdorga vaqtinchalik foydalanish maqsadida pul mablag‘i yoki moddiy buyum ko‘rinishida berish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir” tarzidagi ta’rifi shakllantirilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchilardan professor Sh.Abdullayeva tomonidan nashr ettirilgan darslikda: “Kredit – bu vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma’lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir” tarzidagi ta’rif berilgan²

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prizdentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni.

² Абдуллаева И.З. Пул кредит ва банклар. Т.: Иқтисод – Молия, 2007. 165 б.

www.tadqiqotlar.uz

7-to‘plam 2-son may 2024

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Iqtisodiyotda kreditga bo‘lgan talab ko‘p omillarga bog‘liq. Birinchidan, kreditga bo‘lgan talab mamlakatdagi baholar darajasi bilan funksional bog‘liqlikka ega. Iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar bahosi ko‘tarilishi sharoitida, subyektlar qo‘sishimcha mablag‘ga muhtoj bo‘ladi. Chunki ishlab chiqarish uchun zarur tovar va xizmatlar bahosi oshishi qo‘sishimcha mablag‘ni talab etadi. Bunday holatda tashqi moliyalash manbalariga, xususan bank kreditlariga talab ortadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanish darajasi, fan-texnika taraqqiyoti, texnologik jarayonlarning takomillashuvi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi kabilar ham pul mablag‘lariga bo‘lgan talabning oshishiga olib keladi.

Ikkinchidan, kreditga bo‘lgan talab jamiyatda olinadigan daromad bilan funksional bog‘liqdir. Mamlakatdagi uy xo‘jaliklari va yirik firmalar tadbirkorlik faoliyatidan olinadagan daromad darajasining o‘sishi yoki daromad me’yorining oshishi bank kreditlarini olishga moyillikni oshiradi. Shunday ekan, kreditga bo‘lgan talab daromad o‘zgarishiga nisbatan proporsional ravishda o‘zgarib boradi.

Kredit taklifi pul bozorlarida moliyaviy vositachilar yoki kreditorlar tomonidan pul mablag‘larining taklifiga bog‘liq. Kredit resurslari bozoridagi taklif darajasi ham bir qator omillarga bog‘liq holda shakllanadi. Bulardan eng asosiysi, jamiyatda yangidan hosil bo‘lgan qiymatning jamg‘armaga atalgan qismining oshib borishi, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslarda vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larining ortib borishi hamda ularning bank aylanmasiga jalb etish darajasi.

TADQIQOT METADALOGIYASI

Tadqiqot maqsadi banklararo raqobat sharoitida tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar samardorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Mavzuni tahlil qilish jarayonida jadvallar va diagrammalarni jamlash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining muvaffaqiyatga erishishining asosiy shartlaridan biri ajratilayotgan kreditlarning samaradorligini oshirish, tarmoqlar bo‘yicha maqsadli ishlatilishini ta’minlash zarur. Bugungi kunda yurtimizda asosan kichik biznesga

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hamda xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor berilayotganligi bois tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarda ham buning ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar³, (tarmoqlar bo'yicha)

mlrd.so'mda

Sana	Jami	shundan:						
		Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Savdo va umumiy ovqatlanish	Transport va kommunikatsiya	Jismoniy shaxsler	Boshqalar
1	2	3	4	5	6	7	8	9
2020-yil	127 207,5	41 603,0	18 772,2	4 939,5	18 262,1	4 366,4	28 466,6	10 797,8
2021-yil	166 673,5	51 335,6	21 133,2	6 745,4	26 849,6	6 309,6	40 520,9	13 779,3
2022-yil	203 126,6	60 198,7	15 963,9	7 828,5	30 303,7	7 217,8	65 288,5	16 325,5
2023-yil	251 401,5	66 913,9	14 602,5	6 826,8	30 511,1	9 594,3	100 234,8	22 718,1

Jadval ma'lumotidan shuni ko'rishimiz mumkinki, umumiy kredit miqdori oxirgi to'rt yilda 97 foizga ortib 251 401.5 mlrd.so'mga yetgan, asosiy o'sish jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditga to'g'ri kelmoqda, yani jami kreditning 40 foizini egallamoqda (2023-yilda), bu ko'rsatkich 2020-yilda jami kreditning 22 foizini tashkil etgan. Sanoat tarmoqlarini kreditlash yil sayin ortib borishiga qaramasdan oxirgi ikki yillikda jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar miqdoridan kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin qishloq xo'jaliklarini kreditlash yildan yilga kamayib bormoqda, ya'ni 2020-yilda 18 772.2 mlrd.so'm

³ <https://cbu.uz/uz/statistics/buletен/1589794/> markaziy bank sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kredit mablag‘lari ajratilgan bo‘lsa 2023-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich 14 602,5 mlrd.so‘mgacha tushganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari boshqa tarmoqlarni kreditlash oxirgi to‘rt yillikda 2 barobarga ortganini guvohi bo‘lishimiz mumkin, ya’ni 22 718,1 mlrd.so‘mga yetgan. Xulosa sifatida shuni aytishiiz mumkinki, bugungi kunda jismoniy shaxslarga berilayotgan keng imkoniyatlar hamda kreditlar samaradorligini, maqsadli ishlatalishida bir qancha qiyinchiliklar olib kelishi hamda muammoli kreditlar miqdorini oshirishi mumkin. Bu borada tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Shu orqali ajratilayotgan kreditlarning samarali ishlatalishiga erisha olamiz.

2-jadval

Sana	Jami	shundan:				
		Asosiy vositalar sotib olish uchun	Aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun	Yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya uchun	Aholiga uy-joy qurish va sotib olish uchun	Boshqa maqsadlar
1	2	3	4	5	6	7
2020-yil	127 207,5	39 009,8	43 797,0	10 462,2	9 163,5	24 775,0
2021-yil	166 673,5	43 447,8	63 319,8	12 637,9	9 787,6	37 480,4
2022-yil	203 126,6	44 087,4	75 663,4	12 131,2	14 307,0	56 937,6
2023-yil	251 401,5	47 784,9	80 015,2	5 461,6	16 088,4	102 051,4

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar, (maqsadlar bo‘yicha) mlrd.so‘mda

Oxirgi yillarda tijorat banklarimiz tomonidan ajratilayotgan kreditlarning asosiy qismi aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun hamda boshqa maqsadlarga ko‘proq miqdorda ajratilmoqda. Aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun ajratilgan kredit miqdori oxirgi to‘rt yilda qariyb 2 barobarga ortib 80 015,2 mlrd.so‘mga yetgan. Lekin yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya uchun ajratilayotgan kreditlar miqdori 2 barobarga kamayga bu esa korxonalarni yashil iqtisodiyotga otishiga to‘sinqlik qilishi bilan birga kelajak avlod uchun resurs miqdori kamayishiga olib keladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3-jadval

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar⁴, mlrd.so'mda

Davr	Ajratilgan kreditlar		shundan:						
			yuridik shaxslarga		yakka tartibdagi tadbirkorlarga		aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun		
	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni
1	2	3	4	5	6	7	8	9	
2020-yil	281 214	48 389,7	71 883	42 498,4	33 209	2 289,2	176 122	3 602,1	
2021-yil	436 110	59 552,1	69 700	49 715,0	27 740	3 007,2	338 670	6 830,0	
2022-yil	507 856	69 770,3	60 811	57 002,9	24 819	3 673,1	422 226	9 094,4	
2023-yil	573 252	73 009,4	78 620	57 438,1	24 553	6 076,2	470 079	9 495,2	

Jadvaldan ko'rinaldiki kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar miqdori oxirgi 4 yillikda sezilarli ravishda ortib 73 009.4 mlrd.so'mga yetgan. Asosiy o'sish yakka tartibdagi tadbirkorlarga to'g'ri kelmoqda, ya'ni oxirgi 4 yillikda deyarli uch barobarga oshish tendensiyasiga erishgan. Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdori esa o'sishda davom etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilayotgan

⁴ <https://cbu.uz/uz/statistics/buletен/1589794/> markaziy bank sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kredit miqdori bilan soninig oshishi juda katta tendensiyanı tashkil etgan, lekin bu ajratilgan kreditlarning maqsadli ishlatilishida muammolar yuzaga kelishiga oib keladi. Natijada banklarimizda muammoli kreditlar miqdorining ortishiga olib kelishi hamda daromadning kamayishiga olib kelish xafi ortishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning samaradorliligini oshirish” – bu, tijorat banklarining kreditlarni berish, moliyaviy jarayonlarni boshqarish va mijozlar uchun qulayliklar yaratish jarayonlarini o'rganish, optimallashtirish va rivojlantirishga oid masalalarni o'z ichiga olgan ilmiy va amaliy yo'nalishdir.

Bu yo'nalishda, banklar kreditlar orqali moliyaviy munosabatlarini tuzish, mijozlar uchun samarador shart-sharoitlar yaratish, kreditlar miqdorini va shartlarini belgilash, kredit muddatlarini va foiz stavkalarini aniqlash, kreditlarni boshqarish va kreditlarni ko'paytirishning strategiyalarini rivojlantirish va boshqarish, shuningdek, kreditlarni foydalanuvchilar uchun samarali qilish uchun texnologik rivojlanishni o'rganish hamda moliyaviy risklar va huquqiy munosabatlar yuzasidan tahlillar olib borishlari zarurdir.

Asosiy maqsad, banklarning kreditlarni olib borish va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqarish orqali daromadlarini oshirish va mijozlarga qulay shartlar yaratishdir. Bu jarayonlarda kreditlarni berishning samaradorligi, bankning moliyaviy natijalari, mijozlarga taqdim etiladigan imkoniyatlar va bankning umumiyligi muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Tijorat banklarimiz ajratayotgan kreditlarining maqsadli ishlatilishi yuzasidan monitoringni olib borishdagi muddatlarni qisqartirish bu boradagi operatsion riskni qisqartirishga alohida e'tibor berishlari zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxari:

1. O'zbekiston Respublikasi Prizdentining “O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risidagi 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni.
2. Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. Т.: Иқтисод – Молия, 2007.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3. Pul va banklar: Darslik/ A.A.Omonov, T.M.Qoraliev; -T.: —Iqtisod-Moliya, 2018. – 384 b.
4. <https://cbu.uz>- Markaziy bank sayti